



THOUGHTS ON "THE POETIC WORLD OF ANVAR OBIDJON"

Z.M.Mamatalimov – Associate Professor, Alfraganus University,

mamatalimovz@gmail.com ORCID: 0009-0007-1628-1635

Annotation: This article provides an overview of the monograph "The Poetic World of Anvar Obidjon", published by Professor Y. Solijonov. The views of the literary scholar are also compared with the views of other researchers, and a general conclusion is drawn.

Keywords: style, chronology, image, plot, biographical story, fairy tale, narrative, unity, trinity, satire, story, journalism

“ANVAR OBIDJON POETIK OLAMI” HAQIDA MULOHAZALAR

Z.M.Mamatalimov – Alfraganus universiteti dotsenti,

mamatalimovz@gmail.com ORCID: 0009-0007-1628-1635

Annotatsiya: Ushbu maqolada professor Y.Solijonov muallifligida chop etilgan “Anvar Obidjon poetik olami” monografiyasi xususida mulohaza bildirilgan. Shuningdek, adabiyotshunos olimning qarashlari boshqa tadqiqotchilarning fikrlari bilan o‘zaro qiyoslanib, umumlashma xulosa chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: uslub, xronologiya, obraz, syujet, biografik qissasi, ertak, rivoya, birlik, uchlik, hajviya, hikoya, hangoma, publitsistika

Anvar Obidjon ijodi o‘tgan asrning 70-80-yillaridayoq katta ijodkorlar, adabiyotshunoslar e’tiborini torta boshladi. Said Ahmad, Asqad Muxtor, Miraziz A’zam, Erkin Vohidovlarning bevosita qo‘llab-quvvatlashlari, maslahatlari uning ijodkor sifatida shakllanishi, o‘z uslubi, yo‘nalishlarini belgilab olishida muhim o‘rin tutgan bo‘lsa. P.Shermammedov, B.Imomov, M.Sattorov, S.Matchon, R.Barakayev, A.Rasulov, Q.Qahramonov, Z.Ibrohimova, Q.Yo‘lchiyev kabi olimlar



tomonidan turli yillarda bildirilgan fikrlar ijodiy qarashlarining yanada mustahkamlanishiga yordam berdi. Professor Y.Solijonov ham Anvar Obidjon hali viloyat radiosida ishlab yurgan, endigina she'rlari matbuotda ko'rina boshlagan kezlardanoq uning ijodini kuzatib kelayotgan adabiyotshunoslardan biri. Olim qator maqolalari bilan birga, "So'z sehri va mehri"risolasida ham Anvar Obidjon haqida so'z yuritadi. Lekin, baribir, amalga oshirgan ishlaridan ko'ngli to'lmadi. Qalbi yoniq inson sifatida o'zini ulg'aytirgan, unib-o'stirgan Farg'onaning yana bir otashqalb farzandi haqida batafsilroq yozishga bel bog'ladi. Natijada, "Anvar Obidjon poetik olami" monografiya shaklida dunyo yuzini ko'rdi...

Anvar Obidjon ijodi bilan ozmi-ko'pmi tanish inson uning "yozmish"larida boshqa ijodkorlardan farqlanib turadigan alohida jihatlar bisyor ekanligiga guvoh bo'lishadi. Adabiyotshunos Y.Solijonov monografiyada ayni shu jihatlarni, bu o'ziga xoslikning kelib chiqish omillarini tadqiq etishni maqsad qiladi: "Men tadqiq etayotgan qalamkashning tarjimai holi ham, ijodiy merosi ham, hayotga qarashi ham, XX asr o'zbek adabiyotining 70-yillaridan to yangi asrning 20-yillarigacha bo'lgan rivojiga qo'shgan hissasi ham boshqalardan, xususan, u bilan adabiyot dargohiga kirib kelgan tengdoshlarinikidan nimasi bilandir farqlanadigandek tuyuldi. Men ana shu "nima"ni izlab topishga, ilmiy jihatdan isbotlashga urinib ko'rishni niyat qildim".

Monografiyaning 1-bobi "Yillar, yo'llar, yo'nalishlar" deb nomlanadi. Shunisi e'tiborliki, sarlavhadagi so'zlar "y" tovushi asosidagi ohangdoshlikni yuzaga keltirish bilan birga, qat'iy kompozitsion izchillik yaratishga xizmat qiladi. Ya'ni, sarlavhadagi har bir so'z o'z salmog'i, zalvoriga ega. Ularning o'rni almashtirilsa, shakliy va mazmuniy ketma-ketlikka putur yetadi. Garchi bu bo'lim ("yillar")da shoir hayoti xronologiyasi tadqiq etilishi kutilsa-da, muallif atay raqambozlikdan qochadi. Qator shoir va yozuvchilarimizning avtobiografik xarakterdagi asarlari



ularni ijodkor sifatida qayta kashf etish, muayyan obraz yoxud u bilan bog‘liq syujetning yaralish omillarini talqin qilishga ko‘mak berib kelgan. Shu ma‘noda, Y.Solijonov Anvar Obidjonning “Ajinasi bor yo‘llar” biografik qissasini o‘z fikrlarini tasdiqlovchi manba o‘laroq diqqat-e‘tibor markazida tutadiki, bu ham olimning ijodkor poetik olamini kashf etish uchun to‘g‘ri yo‘l tanlaganidan dalolatdir.

“Hayot yo‘li” faslida olim Anvar Obidjon umr yo‘lini boshqa risolalar, ayrim darsliklarda qayd etilganiday, tavallud sanasidan emas, balki ajdodlari, ularning kasb-korlariga e‘tibor qaratishdan boshlaydi. Shu o‘rinda “hayotining asosiy maqsadi qilib olgan ekan”, “baxtli qilishni istabdi”, “sovchi yuborishni so‘rabdi”, “amalga oshiribdi” kabi ertaklarga xos rivoya usuli tanlanadiki, bu o‘tmish voqealarni so‘zlashda muallifga juda qo‘l keladi. Boshqa tomondan, Anvar Obidjondagi iste‘dod, poetik mahoratning paydo bo‘lish omillari, rivojlanishi, takomiliga yetish bosqichlarini tasavvur qilish imkonini ham beradi. Bu faslda o‘quvchi shoirning bobosi Bahromxonning saxiyliigi, odamoxunligi, taqvodorligi, bir so‘z bilan aytganda, fe‘li-sajiyasiga xos chizgilardan boxabar qilinadi. Shu bilan birga, bo‘ljak shoirning hayot yo‘lida uchragan insonlar va ular bilan bog‘liq voqealar qalamga olinar ekan, janjalkashligi uchun maktabdan haydalgan to‘polonchi bolaning qanday qilib yetuk ijodkorga aylangani xususida tasavvur paydo qiladi. Savriniso buvisining uyida tashkil etilgan bedilxonlik, navoiyxonlik, mashrabxonlik kechalari, birinchi o‘qituvchisi Ahmadali Obidov, rais Eminjon karvon bilan bog‘liq lavhalarda qalbida kitobga, ayniqsa, she‘riyatga mehr tuyg‘ulari jo‘sh urayotgan bolaning kechinmalariga; otasi Obidjon aka, kolxoz raisi M.G‘iyosov, gazeta muharriri T.Azizov, radioqo‘mita raisi D.Ergashev bilan bog‘liq voqealar ijodkor sifatida shakllanishiga; Miraziz A‘zam, Ne‘mat Aminov, Erkin Vohidov, Said Ahmad singari ustozlar bilan uchrashuv, adabiy muloqotlar uning o‘z



qarashlari, uslubini belgilab olishi, o‘zbek adabiyotida alohida hodisa sifatida baholashga arzigulik asarlar yaratishiga puxta zamin hozirlaganini ko‘rish mumkin. Monografiya muallifi Anvar Obidjon ijod yo‘lini ham boshqacharoq ifodalashga intiladi. Besh-olti yoshlaridan g‘alati oysanam – ilhom parisiga yo‘liqishidan boshlab, dastlabki she‘rining e‘lon qilinishi, ilk kitob, ustozlar e‘tirofi haqida yozar ekan, she‘riy to‘plamlarni ketma-ketlikda sanash yo‘lidan bormaydi, balki bir insonning kamolot pillapoyalarini bosib o‘tish davomida ijodkor sifatida shakllana borganini xolis ko‘rsatib berishni maqsad qiladi. O‘rni bilan fikr isboti uchun uning uchchanoq, ignabarg yoxud boshqa janrlardagi she‘rlaridan misol keltiradi. Jumladan:

Topolmasang baxtingni,

So‘rolmasang haqqingni,

Nega kelding dunyoga?

she‘ri muqim ish, uy-joyga ega bo‘lish, turmush tashvishlarini boshdan kechirayotgan shoir iztiroblaridan so‘zlash asnosida yodga olinadi. Bunda ikki jihatni alohida ta’kidlash lozim:

- a) shoirning ruhiy kechinmalari va she‘r yaralishiga turtki bo‘lgan omillar;
- b) kurashchanlik, chaqiriq, da‘vat va b.

Uchlikni mutolaa qilgan o‘quvchi she‘r shunchaki shaklbozlik uchun yaratilmaganini anglaydi. Shoir yuragini his qiladi. Dardini tushunadi. Darddosh bo‘lgisi keladi. O‘zini-da kurashlarga chog‘laydi, hayot qiyinchiliklariga bardoshi ortadi.

Professor Y.Solijonov Anvar Obidjon ijodining o‘ziga xosligini ta‘minlagan manbalarga alohida e‘tibor qaratar ekan, besh jihatni alohida ajratib ko‘rsatishni lozim ko‘radi. E‘tibor berilsa, haqiqatan bu yo‘nalishlar adib asarlarining



hayotbaxshligini, betakrorligini, umriboqiyiligini ta'minlab turganiga amin bo'lish mumkin.

Kitobda qiyoslar ko'plab uchraydi. Qahramonlarning sarguzasht izlab yo'lga o'tlanishlari "Uch og'ayni botirlar", "Malikai Husnobod", "Bulbuligo'yo" ertaklari, xalq dostonlaridagi safar motivlariga taqqoslab ko'riladi. Hatto jahon sarguzasht romanlariga murojaat qilingan o'rinlar ko'zga tashlanadi. "Meshpolvonning janglari" qissasidagi Meshpolvon "Don Kixotning sarguzashtlari" (Servantes) romani bosh qahramoni Don Kixotga muqoyasa qilinadi. Aslida, "ikki lunji nog'ora, qorni naq qirq pudlik sandiq" o'n-o'n ikki yashar bolaning "juda ozg'in, eti suyagiga yopishib ketgan skeletnuxa bir zot" – ellik yoshlardagi savdoyi odamga qiyoslanishi o'quvchida ishonchsizlik paydo qiladigandek tuyuladi. Lekin muallif o'z qarashlarida sobit turadi: "Anvar Obidjon Meshpolvon timsoli orqali bolalar adabiyotida birinchi bo'lib o'zbekona qiyofadagi, o'zbek milliy xarakteridagi Don Kixotni yaratdi desam, o'quvchilar mendan ajablanmasinlar" (42-bet) Bu ikkala obrazning yoshi, safarga chiqishdan maqsadi bir-biridan keskin farqlansa-da, chog'ishtiruv natijasida qator o'xshashliklar (kiyimi, qurol-yarog'i, ulov tanlashi, kuylab yuradigan qo'shig'i) keltiriladiki, olimning fikrlari haq ekaniga shubha qolmaydi.

"Bolalar badiiyati bog'ining bog'boni" bobida kichkintoylar adabiyoti ulkan bog'ga o'xshatiladi. O'zbek adabiyotida bolalarbop asarlarning paydo bo'lishini Alisher Navoiy ijodi bilan bog'lagan olim jadid adabiyoti vakillaridan tortib bugungi kungacha bo'lgan davr oralig'ida "bog'"ning yaratilishi, parvarishi, gullab-yashnashi uchun xizmat qilgan qalam ahllarini yodga oladi. Anvar Obidjon o'ziga meros qoldirilgan "bog'"ni yangi mavzu, yangi muammo, yangi qahramon bilan boyitganiga urg'u beradi va shoir ijodi borasida "Dadil aytish mumkinki, Anvar Obidjon ijodining asosida milliylik bilan jahon adabiyoti an'analari, eng yaxshi



fazilatlari, dunyo badiiy tafakkurining yuksak darajasi, jahon adabiyotidan o‘rganilgan tajriba, olingan saboq yotadi”, degan qat’iy xulosaga keladi.

“Labirintlar laboratoriyasi” faslida Anvar Obidjonning ko‘pqatlamli – “kosa tagida nimkosa” she‘rlari “ko‘p qavatli muhtasham bino”ga o‘xshatiladi. She‘rda serqatlam ma‘no paydo qiladigan omillar – usul va vositalar qo‘llashda ijodkor mahoratiga diqqat qaratiladi. Hatto sarlavhaning lirikadagi ahamiyati haqida qimmatli fikrlar bildiriladi. Jumladan, Anvar Obidjonning bir, uch misrali she‘rlarini “ignabarg”, “uchchanoq” janri deb emas, “birlik”, “uchlik” deyish o‘rinli ekanligi aytiladi.

To‘rtinchi bobda Anvar Obidjon nasriy asarlarining o‘ziga xosligi xususida so‘z yuritish maqsad qilinadi. Shu bois, bob, an‘anadan chekinmagan holda, “n” tovushi ohangdoshligi asosida “Nasrning nafosati, nazokati, nash‘u namolari” deb nomlanadi. “Anvar Obidjonning nasriy asarlari lirik merosidan zarracha kam emas”ligini ta‘kidlagan olim kichik janrdagi asarlar – hajviya, hikoya, hangomalar misolida adibning katta mahoratini ko‘rsatib berishni niyat qiladi. Olim “Kalvak Mahzumdan maktublar”, “Mirzaqand piyonning hasratlari”, “Aspan-attor arizalari”, “Sotti satang hayotidan” kabi hajviya, hangomalarini “turkum naziralar” deya baholaydi. Ma‘lumki, nazira aslida lirik turga mansub bo‘lib, o‘zidan oldin yozilgan she‘riy asarlarga ergashgan holda yaratiladi. Naziraning hajviy asarlarga nisbatan qo‘llanishi quyidagi maqsadlarni yuzaga chiqaradi:

- a) hajviy asarlarda vorisiylik elementlarining mavjudligi;
- b) yaratilgan hajviy obrazning paydo bo‘lish omillari;
- v) komik vaziyat kuch olib turgan asl o‘zan va boshqalar.

Yana shuni ta‘kidlash o‘rinliki, monografiya muallifi biror hajviy asar yoki hangomani shunchaki tilga olmaydi. Dastavval, mazkur atamalarga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” va boshqa manbalar orqali izoh berishni lozim topadi. Jahon va o‘zbek adabiyotshunoslarining



fikrlarini keltiradi. Kezi kelganda, o‘z shaxsiy mulohazalarini bildirib o‘tadiki, bu ham olimning o‘ziga xos individual uslubidan dalolatdir. Xususan, ko‘pgina adabiyotlarda ta’kidlanganidek, hajviyot muayyan yo‘nalish emas, balki “...o‘zining qadimiydigi, boyligi, strukturasi, bayon qilish uslubi, janrlarining seroblighi bilan alohida tur sifatida tan olinishga loyiqdir”, deb yozadi olim. Dunyo adabiyotida Servantes, Aziz Nesin, Saltikov-Shcherdin, Ilf va Petrov; o‘zbek adabiyotida Turdi Farog‘iy, So‘fizoda, Yamin Qurbon, Ne‘mat Aminov, Muxtor Xudoyqulov kabilar ijodida hajviyalarning salmoqli o‘rin tutishi, xilma-xil janrlarning takomillashuvi ham shunday xulosa chiqarilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotshunoslar turli munosabat ila – yo davr, yo janr yoxud mavzu nuqtayi nazaridan Anvar Obidjon publitsistikasiga murojaat qilishgan. Adibning publitsistik yo‘nalishdagi ijod namunalari hanuzgacha yaxlit o‘rganilgan emas. Y.Solijonovning “Anvar Obidjon poetik olami” kitobidagi “Po‘rtanali publitsistika” deb nomlangan fasl ma’lum ma’noda mana shu kentiklikni to‘ldiradi.

Dastavval ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarga tezkor javob qaytaruvchi bu yo‘nalishning badiiy adabiyotning boshqa turlaridan farqli jihatlariga to‘xtalgan olim “Fikrsiz publitsistika befoyda matodir” degan xulosaga keladi. (157-bet) Shu bilan birga, “Onamning mamlakati” essesi, qator ijtimoiy mavzulardagi maqolalardan iborat “Farg‘onaliklar” kitobi misolida Anvar Obidjonning publitsistik mahoratini baholashga harakat qiladi. Monografiyada to‘g‘ri ta’kidlanganidek, “Onamning mamlakati” essesida muallif bir necha qiyofada namoyon bo‘ladi: “Dastlab suyukli onasidan ajralib, g‘am-qayg‘uga botgan o‘g‘il; ona oldidagi burchini baholiqudrat bajara olganidan qoniqish hosil qilgan farzand; biroq onasini o‘zi istaganidek to‘la-to‘kis rozi qilolmaganidan o‘kinayotgan inson; Sho‘ro hukumatining o‘tgan asr ikkinchi yarmida olib borgan mustamlaka mamlakat aholisi haq-huquqlarini poymol etish, turmushini o‘nglash uchun



kurashayotganlarni kamsitish kabi noto‘g‘ri siyosatini fosh qiluvchi muallif. Bu qiyofalar o‘zaro bir-birini to‘ldiradi, boyitadi”.

“Farg‘onaliklar” nomli kitob Prezident Sh.Mirziyoevning da‘vatiga javob o‘laroq maydonga keldi. Yigirmaga yaqin maqoladan tarkib topgan esse-safarnomada bugungi kun yangiliklari, Farg‘onadagi ijobiy o‘zgarishlar xususida so‘z boradi. Darhaqiqat, istiqlol sharofati bilan yangi qiyofa ochayotgan qishloq, mahalla, guzarlar obodligi, tadbirkorlarimiz sa’y-harakati bilan tashkil etilayotgan ishlab chiqarish korxonalarining yutuqlari, ularda mehnat qilayotgan yurt fidoyilari haqida so‘z aytish, bugungi kun qahramonlarining muvaffaqiyatlarini e’tirof etish, albatta, yurtdoshlarimizda kelajakka ishonch hissini yanada yuksaltirishi ayni haqiqat.

Bizningcha, o‘zbek tiliga qilinayotgan zug‘umlar, paxta dalalaridagi ayollar va bolalarning mashaqqatli mehnati, Orol fojeasi, yer va havoning zaharlanishi, kitoblarning tanqisligi xususida kuyunib yozilgan “Haqiqat halollikdadir” (“Yosh leninchi” gazetasi, 1989 yil 14 sentyabr soni), “Dehqon bo‘lishni orzu qilasizmi?” (“Mushtum” jurnali, 1988 yil, 6-son), “Rus tili – durdona til” (“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 1986 yil 10 yanvar soni), “Alifbe”dagi sirli qop (“Yoshlik” jurnalining 1986 yil 3-soni), “Hamma yaxshi narsalar bolalardami?” (“Yoshlik” jurnali, 1988 yil, 6-son) maqolalari Anvar Obidjon publitsistikasining haqiqiy “po‘rtana”sini belgilab beradi.

Xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, “Anvar Obidjon poetik olami” kitobi bugungi kunga qadar adib ijodini o‘rganish borasida qilingan tadqiqotlar orasida “yarq” etib ko‘zga tashlanib turibdi. Bu Anvar Obidjon ijodini o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarilganidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Solijonov Y. Anvar Obidjon poetik olami. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.



2. Jumaboyev M. “Farg`onaliklardan biri”. “Farg`ona haqiqati” gazetasi. 2010-yil 7-avgust, 62-son
3. Obidjon A. “Juda qiziq voqea”. T.,1987-y., 42-bet
4. Ibrohimova Z. “Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar”. Toshkent: Ilm ziyosi, 2005.
5. Obidjon A. Bahromning hikoyalari. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1980.
6. Mamatalimov Z. Anvar Obidjon she’riyatida majoz va falsafiylik./ World Bulletin of Social Scienses. – Germaniya, 2024. <https://www.scholarexpress.net>.
7. Mamatalimov Z. Anvar Obidjon she’riyatida folklorizmlar. “Theoretical & Applied Science” International Scientific Journal (AQSh) 5-son. Filodelfiya, 2019. <https://dx.doi.org/10.15863/TAS>